



IJTIMOIY TARMOQLARNING YOSH AVLODGA TA'SIRI

Askarova Shahlo Muhammadaliyevna

Farg'ona davlat universiteti Axborot texnologiyalari kafedrasи

Toshqo'ziyeva Madinabonu Burhonjon qizi

talaba

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlar ya'ni Instagram va Facebook kabilarning yosh avlodga ko'rsatayotgan ta'siri haqida fikr yuritilingan bo'lib, yosh avlodga ijtimoiy tamoqlarning ijobiy va albatta salbiy tomonlari ko'rib chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *Internet, ijtimoiy tarmoq, axborot, qaramlik, mobiy o'yinlar.*

Bugungi kunda hayotimizni ijtimoiy tarmoqlar yoki internetsiz tasavvur qilishimiz ancha qiyin. Bunga asosiy sabab esa aksariyat odamlarning mehnat faoliyatlari va ta'lif olish jarayonlari aynan ijtimoiy tarmoqlar bilan bog'liqligidir. Bu bilan hamma ham ijtimoiy tarmoqlarda mehnat faoliyatini olib boradi demoqchi emasmiz. Chunki aholining aksariyat qismi ijtimoiy tarmoqlarda o'z faoliyatlarini olib borishsa, qolgan qismi undan nisbatan oddiyroq holatda foydalanishadi. Oddiyroq deganda, ijtimoy tarmoqlar va telegram kanallari orqali dunyoda sodir bo'layotgan o'zgarishlar, dunyo yangiliklari va kun xabarlari haqida xabardor bo'lish, ularni bir-birligiga uzatish ko'zda tutilmoxda. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.Mirziyoyevning "ommaviy axborot vositalari" haqidagi nutqiga eti'bor qaratsak.

"Oxirgi yillarda mamlakatimizda katta auditoriyaga ega bo'lgan qariyb 290 ta xususiy va idoraviy Internet nashrlari tashkil etildi. Ular boshqa materiallar qatorida eng muhim rasmiy axborotlar, normativ-huquqiy hujjatlarni o'zbek, rus va ingliz tillarida tarqatmoqda.

Eng asosiysi, ommaviy axborot vositalari mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli o'zgarish va yangilanish jarayonlarini har tomonlama tahlil qilib, joylardagi ijtimoiy muammolar, xato va kamchiliklarga davlat idoralari va jamoatchilik e'tiborini qaratayotganini alohida qayd etish lozim.

Albatta, bugun biz hamma sohada, jumladan, ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish borasida ham izlanishdamiz. Binobarin, bu yo'lda yutuqlar bilan birga, kamchilik va nuqsonlar bo'lishi ham tabiiydir.

Bu haqda gapirganda, milliy media maydonimizda zamonning o'tkir talab va mezonlari, eng muhim tendensiyalarini ochib berish, tanqidiy tahlil, odamlar kutayotgan mavzu va muammolarni dadillik bilan o'rta ga tashlash hali ham yetakchi o'rin egallamayotganini aytishga to'g'ri keladi. Afsuski, aksariyat axborot vositalarida ijtimoiy salmog'i yengil bo'lgan, hisobot va balandparvozlik ruhidagi materiallar hanuz ustunlik qilmoqda.



Yana bir muhim masala – ayrim jurnalist va blogerlarimizda bilim va professional malaka, bahs madaniyati yetishmasligi jamoatchilikni tashvishlantirmoqda” – dedi O’zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.Mirziyoyev.[1]

Ijtimoiy tarmoqlarda mamlakatimiz va dunyo miqiyosida sodir bo’layotgan o’zgarishlar, voqeа-hodisalar, yangiliklar haqidagi xabarlar aks etib bormoqda. Bu yangiliklar haqida bilish uchun internet tizimi, mobil telefonlar va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish ancha qulay. Bulardan tashqari, o’zaro ma’lumot almashish, voqeа-hodisaga munosabat bildirish, o’z fikrini bayon etish yoki o’zaro muloqot qilish uchun ijtimoiy tarmoqlar juda qulay vositadir.

Bularning barchasi ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilar uchun o’z fikrlari, qarashlari va tuyg’ularini bayon qilishda tengsiz imkoniyatdir. Ayni shuning uchun ham ijtimoiy tarmoqlar har qanday yoshdagi odamni cheksiz darajada o’ziga “maftun” qilib qo’yadi.

Afsuski, aksariyat yoshlari o’zlarining qimmatli vaqtlarini behuda sarflab, ijtimoiy tarmoqlardan kun bo’yi foydalanishadi. Bu esa o’z navbatida inson salomatligi uchun salbiy holatlarni keltirib chiqaradi. Bor-yo’g’i 10 yil oldin uyali telefonlar ijtimoiy mavqe belgisi bo’lib xizmat qildi. Bugungi kunda esa yosh bolalarni bu bilan hayron qoldirib bo’lmaydi. Smartfon va telefonlar hayotimizning ajralmas qismi bo’lib qoldi. Tom ma’noda biz ularsiz yashay olmaymiz. Tan olishimiz kerakki, bir kun smartfon yoki telefonimiz uyda qolib ketsa, o’zimizni huddi qo’lsiz insondek his etamiz. Keling endi ularning salbiy oqibatlari haqida 2-Markaziy poliklinika oliy toifadagi fizioterapevt shifokori Hulkar Aliyevaning javoblari bilan tanishsak.

Birinchidan, mobil telefon – elektromagnit nurlanish manbai.

Ko’pchilikning fikricha, mobil telefon cho’ntakdagи kichik mikroto’lqinli pech kabi sog’liq uchun zararli. U butun organizmga – bosh miya qobig’l, yurak va jinsiy tizimga salbiy ta’sir ko’rsatadi.

Ikkinchidan, diqqat: ionlovchi nurlanish!

Mobil telefonlardagi nurlanish roentgen qurilmalar kabi ionlovchi xususiyatga ega. Demak, mobil telefondan foydalanish saraton kasalliklariga olib keladi.

Uchinchidan, telefon garniturasi orqali gaplashish foydaliroq.

Mobil telefonda garniturasiz gaplashmaslikka harakat qiling, als holda turli xastaliklarga chalina boshlaysiz.

To’rtinchidan, telefonda soatlab gaplashish surnkali bosh og’rig’ini keltirib chiqarishi mumkin.

Mobil telefonda bir kunda 30 daqiqadan ko’p gaplashish mumkin emas, aks holda, kasal bo’lib qolasiz.

Beshinchidan, telefondagi kasallik qo’zg’atuvchi mikroorganizmlar turli kasalliklarni keltirib chiqaradi.

Mobil telefon yuzasi unitaz gardishidek darajada bakteriyalarga boy. Telefonni qo’lga oldingizmi, qo’lingizni tezda yuving.



P.S. Mobil telefonlar zarari haqida gapirganda, psixologik tobeklikni chetlab o'tib bo'lmaydi. U yuqorida sanab o'tilgan barcha miflardan ham xavfliroqdir. Agar siz smartfoningizga kuchli bog'lanib qolib, uni odatda qo'ldan tushirmsangiz, unda bir kunda hech bo'lmasa, 1 – 1,5 soat uni o'z holiga qo'ying. Bu vaqt ni esa do'stlaringiz bilan "jonli" ravishda muloqot qilishga, farzandlaringiz bilan vaqt o'tkazishga yoki shunchaki sayr qilishga sarflang.[2]

Endi bugungi maqolamizning asosiy mavzusi bo'lgan ijtimoiy tarmoqlarning ba'zilari haqida to'xtalib o'tsak.

Instagram

Instagram – bu eng katta ijtimoiy media platformalardan biri!

Bu uni biznes egalari vasotuvchilar uchun o'z brendlari va mahsulotlarini targ'ib qilish uchun ajoyib joyga aylantiradi. Keling endi Instagram foydalanuvchilarining statistikasi bilan tanishsak. Qani kettik!

1. Har oy 1.44 milliarddan ortiq odam Instagramdan foydalanadi.
2. Dunyo bo'ylab Instagram foydalanuvchilarining yarmidan ko'pi 34 yoshdan kichik
3. Instagramda foydalanuvchilarning 49% ayollar, 50.7% zini esa erkaklar tashkil etadi.
4. Instagram reklamalari bilan siz 1.4 milliardga yaqin odamni qamrab olasiz
5. Foto reklamaga o'rtacha 1 kishiga 1000ta sharh olasiz
6. Video reklamalar ishtiroki 0.6%
7. To'plam reklamalari konversiyalarni 6% dan ko'proqqa oshiradi
8. Facebook reklamalari Instagram reklamalariga qaraganda yuqori CTRga ega
9. 44% foydalanuvchilar haftalik Instagramda xarid qilishadi
10. Har oyda 130 million Instagram foydalanuvchilari xarish qilish postlariga tegadilar
11. Instagram foydalanuvchilarining 80 foizi xarid qilish to'g'risida qaror qabul qilish uchun platformadan foydalanadilar
12. Foydalanuvchilarning 50% Instagramdan yangi brendlarni kashf qilish uchun foydalangan
13. Instagram foydalanuvchilarining 90% kamida bitta biznesni kuzatib boradi
14. Marketologlarning 67% Instagramda Influencer Marketingdan foydalanadi
15. Instagram postlarining 71.9 foizi fotosuratlardir
16. Har kuni e'lon qilinadigan hisoblar ko'proq obunachilarga ega bo'ladi [3]

Facebook

"Facebook" ijtimoiy tarmog'idan foydalanuvchilar soni bir yil ichida 8 foizga o'sib, 2,5 milliard kishiga yetdi, deya xabar bermoqda "Rambler.ru".



Yuqorida ko'rsatilgan indikator ijtimoiy tarmoqqa oyiga kamida bir marta kiradiganlar sonini aks ettiradi. Kompaniyaning hisob-kitoblariga ko'ra, o'tgan yilning dekabr oyida 1,66 milliard kishi "Facebook"dan kuniga kamida bir marta foydalangan. Bu ko'rsatkich yil davomida 8 foizga oshgan.

O'tgan yili "Facebook"ning daromadi 70,697 milliard dollarni tashkil etib, 2018-yilga nisbatan 27 foizga ko'paygan edi. Ammo kompaniyaning sof foydasi 16 foizga kamayib, 22,1212 milliard dollardan 18,485 milliard dollarga tushgan edi. Reklama daromadlari esa 27 foizga, ya'ni 55,013 milliard dollardan 69,655 milliard dollargacha o'sgan. [4]

Facebook statistikasi va uning foydalanuvchilari haqida faktlar:

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Askarova S.M. THE MUTUAL INFLUENCE OF MUSIC AND SPEECH ON THE AFFECTIVE (EMOTIONAL) SPHERE OF STUDENTS // Экономика и социум. 2021. №12-1 (91). 93-96
2. Аскарова Ш. ПРИНЦИПЫ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИНФОРМАЦИОННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ // Экономика и социум. 2021. №4-1 (83). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/printsy-p-effektivnosti-informatsionnoy-bezopasnosti> (дата обращения: 15.06.2023).
3. Якубов, М. С., & Аскарова, Ш. М. (2022). Особенности использования информационных ресурсов интернета. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 4, 10-16.
4. Askarova, S. M. (2022). KOMPYUTER VA INTERNETGA QARAMLIKNING YOSH AVLODGA TA'SIRI VA UNDAN TO'G'RI FOYDALANISH OMILLARI. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 10(11), 72-77.
5. Askarova, S. M. (2022). TALABALARING MEDIAMADANIYATINI RIVOJLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Academic research in educational sciences*, 3(6), 1067-1071.
6. Askarova, S. M. (2023). BUTUNJAHON UNTERNET TARMOG'IDAN MAQSADLI FOYDALANISH VA YOSH AVLODDA NETIKET TUSHUNCHASINI RIVOJLANTIRISH. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSİYALAR VA ILMİY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(16), 170-172.
7. Аскарова, Ш. М. (2018). ИННОВАЦИОННАЯ ТЕХНОЛОГИЯ В ОБУЧЕНИИ ЕСТЕСТВЕННЫХ ПРЕДМЕТОВ. In *Перспективные информационные технологии (ПИТ 2018)* (pp. 1221-1225).
8. <https://cyberleninka.ru/article/n/the-mutual-influence-of-music>
9. <https://president.uz/oz/lists/view/3675>
10. <https://m.daryo.uz/2023/08/13/telefonlar-bizni-halok-qiladimi-yoxud-mobil-telefonlar-haqidagi-beshta-ommabop-mif/>
11. <https://squeezegrowth.com/uz/instagram-marketing-statistics/>



"MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS"



12. <https://xs.uz/uz/post/facebook-fojdalanuvchilari-soni-25-milliardga-etdi>
13. <https://scholar.google.com/citations?user=THREEtwAAAAJ&hl=ru>

